

XIII-XIV ASR MARKAZIY OSIYONING UCH BUYUK ALLOMASI

BuxDu “Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa” kafedrası
katta o’qituvchisi. **Allamov Akbar Axtamovich.**

BuxDu “Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa”
kafedrası ilmiy hodimi **Shadmanova Zebiniso Amrulloevna.**

“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor
Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor.
Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor.
Va ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan
Buyuk kelajagimiz ham albatta bo’ladi”

Shavkat Mirziyoyev.

Markaziy Osiyoning ilg’or tafakkuri ravnaqiga ulkan hissa qo’shgan, asli Buxorolik, zabardast alloma va shoir Davlatshoh Samarqandiy o’zining “Tazkirat-ush-shuaro” kitobida ta’rif qilgan jahongashta shoir va isyonkor mutafakkir-Nosir Buxoriydir. Nosir bilan deyarli asrdosh bo’lgan Sayfi Farog’iy hamda Najmiddin Kubro ham o’sha davrning taniqli va zabardast alloma va mutafakkirlari bo’lishgan.

Nosir Buxoriy XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida Buxoroda kambag’al kosib oilasida dunyoga keladi. Bolalik va yigitlik yillari ona shahri Buxoroda o’tgan. Eron olimi Said Nafisiyning ta’kidlashicha Nosir Buxoro va Balx madrasalarida tahsil ko’rgan. Shahardagi notinchlik oxirgi mo’g’il hukmdorlarining o’zaro taxt talashishi, xalqqa qilayotgan bedodliklari shoir va allomani Ona -Vatanni tark etib, nisbatan osoyishta o’lkalarga yuz tuttiradi.

“XIII asrning 20-yillarida O’rta Osiyo xalqi Sharqda, Mo’g’ilistonda shakllangan Chingizxon davlatining beayov xurujiga uchradi. 2-3 yil davomida O’rta Osiyo, Movorounnahr va Xuroson bosib olindi, yo’llar, bog’u-roq’lar barbod bo’ldi, kitoblar yondirildi, xalq endi chingiziylar qaramligiga tushdi, lekin bu karamlik va huquqsizlik uzoqqa cho’zilmadi. Yana mustaqillik uchun kurash boshlandi. Movorounnahr va Xurosonda Mog’ul hukmronligi borgan sari kuchliroq zarbaga uchray boshladi...” (M.M.Xayrullaev. O’rta Osiyoda ilk uyg’onish davri madaniyati. Toshkent, “Fan” 1994, 12-bet).

Alloma va shoir shunchaki vatanni tark etmadi, u qayerda bo’lmasin qalban Ona Vatani bilan bo’ldi, uning ozodligi va istiqloli uchun o’zining qalami bilan astoydil kurashadi.

Nosir Buxoriy Ajam va arab mamlakatlarining ko’p shaharlarini kezib chiqdi, ikki marotaba Makkada bo’ldi, ko’pgina do’stlar orttirdi. U o’z davrining buyuk shayxi va ma’rifatparvar donishmandi Xoja Muhammad Porso bilan do’st bo’lgan; Iroqda Salmon Sovajiy va Tabrizda Xo’jandiylar bilan uchrashdi. Ko’p podsho va zodagonlar uni saroy doirasidagi abadiy-ma’naviy muhitga tortmoqchi bo’lishdi, turli mansablarni taklif etishdi. Lekin “dunyo moliga qo’l siltagan” alloma faqat darveshona (so’fiyona) Hayot kechirishni afzal ko’rdi.

Nosir Buxoriy 1378 yilda Musofiratga rixlat etadi. Uning tabarruk xoki Tabriz atrofidagi shoirlar va donishmandlar qabristonida, deb taxmin qilindadi.

Buyuk mutafakkirlar Abduraxmon Jomiy Alisher Navoiy, Shamsiddin Somiy va boshqa sharq mualliflari Nosirning zukko shoir va zamonasining ilg'or faylasufi sifatida ta'riflangan bo'lsalarda, ammo uning hayot yo'li va ijodiy merosi haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q.

Mavjud ta'limot va tadqiqotlarga tayangan holda Nosir Buxoriy merosi, uning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlariga nazar tashlashga harakat qilamiz.

O'tmish tazkirlarida Nosir Buxoriy katta hajmdagi devon tuzganligi ta'kidlanib turli yo'llarda tuzilgan bayoz, majmua va fexrislarda she'rlaridan baytlar keltirils-D ammo 60-yillarga qadar uning dastxati noma'lum edi. Filologiya fanlari doktori, professor Ismatulla Abdullayev Nosir Buxoriy devoninig hozirgi yagona nusxasini Namanganda qo'lga kiritdi va u haqda "Nosir Buxoriy" degan risolasini yozdi.

Qo'lyozma devon debocha hamda navbatlardan tashqari qasida, g'azal, qat'a, ruboiy, masnaviy, muxammas, tarjeband, bir necha vasfiyalardan iborat. Ularning jami 7 ming baytni tashkil qiladi. Yuqorida biz mutafakkir biron-bir shoh yoki amir saroyini ixtiyor etmagan, dedik. Haqiqatdan ham devonda Mavlono Tojuddin, Xoja Ubaydulloh singari ilm-adab ahli, islomiy ahkom ulamolariga bag'ishlangan qasidalariga mavjud, xolos.

Nosir Buxoriy ijodi tematik jihatdan ham, g'oyaviy, badiiy nuqati nazardan ham rang ba rangdir. Garchi alloma an'anaviy muhammad mavzusida ko'plab g'azallar bitgan bo'lsada, lekin ularda tasvirlangan ishq ko'pincha haqiqiy ishq talqini bilan, komilikka Mayl bilan qorishib ketadi; ba'zan esa sof lirikadek tuyulgan g'azallarda ijtimoiy ruh omuxta keladi, ayrimlarida lirik qahramonning intim kechinmalari, sargardonlikdagi ohu-zori, vatan sog'inchi, do'st-yorlar, xeshlar (qarindoshlari) yodi aralashib ketadi:

Salomimni etkurgil, ey sabo, mendin Buxoroga, Degin, Majnun dilining Tabrigin ul shahri Layloga, xabar bergil kirib shirin sarohi ichra Farhoddin, Olib ketdi dili tanho g'aribni tog'u sahroga. Muyassar bo'lsa qurmoq senga dildorim jamolini, jahonda martabang oshgay yetarsan joyi a'loga.

Ammo eng yuksak axloqiy fazilatlarga da'vat Nosir Buxoriy ijodining yetakchi mavzulari desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, uning asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini tanqid, adolat va rivoyatparvarlikni targ'ib etish, nomardlik, pastkashlik, sudxo'rliq ta'magirlikni qoralash o'z aksini topgan.

"Darveshga qanoat mulki taslim bo'lsa, u olamning sultonidir" degan shoir sabru-qanoat, xayru-saxovat, javonmardligi yetimparvarlikni, olqishladi; u doimo yoriga sadoqat ko'rsatib, fidoiylilik bilan unga intilib, mehr muruvvat tiladi:

Oynai xudoy ruxsori tust moro,

Biguzar, to bubinam dar oina xudoro.

Dar Ka'bai visolat gar boshadam maqome,

Az zamzami dudada ob zanam safaro.

(Sening yuzing men uchun xudoning ruxsoridir,

Oldimdan o'tgil shu oynada xudoni ko'ray.

Sening visoling kabasida maqom tuta olganimda edi, ikki ko'zim zamzamidanda safoga suv sepgan bo'lardim).

Nosir Buxoriy bu yerda g'oyatda nafis tasvir yaratib, mantiqan kuchli qiyoslar yasash bilan birga, majoziy ishqni, tasavvur falsafasining "Ishqi kull" haqidagi nazariyasiga sodiqligini ham ko'rsata olgan.

G'am-hasrat, vatan mehri alloma qalbidagi jo'shqin kayfiyatlarni so'ndira olmaydi. Tanbur navosi, nay nolasi, bodaning kayfiyatiyu-bahorining jonbaxsh tarovati unga taskin beradi, tabiat jilosi ifordek hid taratib, ko'zini yashnatadi, kishi qalbi gul-gul yashnaydi:

Bahor kelib gullar anjumani qiziqdi, Lola tog'u sahrolarga o'z alamini tikdi.

Sarv boshiga chodirini tortib, bulbullar xonishiga kirishdi, Donalarni tars yorib, g'unchalar yuz ko'rsatdi. Devondagi unday g'azallar Nosirning chinakam go'zallik va tabiat oshig'i ekanligini ko'rsatdi. Umuman uning she'rlarida manzara tasviriga ancha keng o'rin berilganligi uning tabiat oshuftaligidan dalolat beradi.

Mutafakkir ijodida insonning insonga mehr oqibatli bo'lishi, turli elat, din va mazhab kishilarning inoqligini tarannum etishga, do'stlikka da'vat qilishga intilish asosiy o'ring egallaydi.

Aftidan shoir o'z vatanida juda katta o'bro' e'tiborga ega bo'lgan. Chunki bir she'rida "Eski, sodiq do'stlardan rubob, shatran, nay va sharob qoldi, xolos. Endi men ularni qancha qidirmayin, baribir topolmayman" deydi. Shuning uchun do'stning qadriga yetmoq, unga sodiq qolmoq, "bulbuldek guldan ayrilib qolmaslikka" intilmoq zarur:

Agar do'stonro tavoni bosh yoft,
Tabon az pasi margjon boz yoft.
Kaseki az firoq va vasl rasid,
Dubora hayoti jahon boz yoft.

(Agar do'stlarimni qaytadan topsam, o'lik tanamga qayta jon kirganday bo'lardi. Kimki ayriliqdan keyin visolga yetar ekan, u ikkinchi marta hayotga yondashganday bo'ladi).

Shoir ijodidagi do'stlik va hamjihatlik haqidagi mulohazalar keng qamrovli. Ularda muallif Xudo bandalarining bari teng, shuning uchun ular bir-biriga mehribon, xayrixoh, xamdardu hamdam bo'lib, yaxshilik urug'ini sepib, bu dunyoda "Yaxshilik" degan nom qoldirib yashashga intilishi zarur. Bir g'azalida Nosir dunyodan shunday yashab o'tganki, sendan so'ng "Falonchidan yaxshi nom qoldi deb yurishsin" degan xulosaga keladi.

Mutafakkirning ijtimoiy siyosiy qarashlarida asosan mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini qoralash, adolatsizlik, zulm-zo'rlikni tanqid qilish xiyla kuchli. Ana shunday qarashlarida u donolar nazdidan chetdayu nodonlar izzatda bo'lgan, sudxo'rlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik avjiga chiqqan zamonasidan noliydi, hukmron tabaqalarni, umumman zamondoshlarini insofli, adolatli, xayr-saxovatli, halim, rostgo'y, ochiq ko'ngil, shirin suxan bo'lishga chorlaydi; o'z zamonasida insof, diyonat tansiq bo'lganidan aziyat tortadi:

Nosir insof dar jahon matalab,
Ki dar ofoq az u noyobi gard,
Xusrave odile nomand magard,
Tojdori xuro's xohad kard.
Parvard osmon bo xuni dilash,
Harki dar davri mo' Suxanparvar ast.
Kori donish zamin furo' burdast,
Zuhal Naxsu Zuhra nomard.
Zarrae mehr agar budi dar charx,
Chehrai mehri o' nabudi zard

Ma'nosi: Nosir dumiyoada insof axtarib ovora bo'lma, butun ofoqda ham uning gardini topolmaysan. Boshida toji bo'lgan bilan Xusravshoh adolatsiz hisoblanaveradimi. Unday bo'lsa, xo'rozning boshidan ham toji borku. Bizning zamonamizda quruq vaysaqilarni yuborgani uchun Zuhal baxtsiz, Zuhra nomard bo'lib qoldi. Charxning tabiatida zarracha mehr bo'lganda, Quyoshning yuzi sarg'aymagan bo'lardi.

Ammo Nosir aqidasisiga, turmush qiyinchiliklari, munofiqligu riyokorlik nazdida o'zni mardona tutmoq, taqdir taqozosiga rizolik bilan, halol mehnat, peshona teri bilan rizq topib, sabr, qanoat bilan yashab, nodonlarga mute', sarvatmandlarga ehtiyodmand bo'lmaslikka da'vat etadi; bir mutafakkir sifatida pand beradi; pastkashlik, ta'magirlikka yo'l qo'ymaslikni uqtiradi:

Otash indar tama' zanu chunhoq

Bardari nokason sifla magard.

Boyadash sad sinin xori did,

Har , ki non z-noni dunon xo'rad. Ya'ni , Tama'ni otashida kuydirib, nokaslar eshigini ostida tuproq bo'lib yurishdab saqlan. Pastlar dasturxonidan bir non yegandan ko'ra, kishi yuziga yuz xoru zorlik nayzasi sanchilgani afzal.

Xulosa qilib aytganda, Nosir Buxoriy ijodi XIV asr forsiy tildagi adabiyotining o'ziga xos zarvaraqlaridir. Bugungi asosiy vazifa vatandoshimiz tafakkur xazinasidagi falsifiy- axloqiy durdonalarga boy merosni o'zbekcha tarjimai bilan nashr etish hamda komil insonlarni tarbiyalashda ulardan foydalanish, qolaversa, keng ommani undan bahramand bo'lishini ta'minladilar.

Musulmon olamidagi eng zabardast alloma, mutasavvif donishmandlardan biri, mo'g'ullar istibdosi so'nggi nafasigacha kurashgan buyuk vatandoshimiz- Shayx Najmiddin Kubrodir.

Abul-Janob va Tamotul Kubro taxallusiga sazovor bo'lgan tasavvurning Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar Muhammad Xivakiy al-Xorazmiydir. Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Hamaviy , Sayfiddin Boxarziy va Bohovuddin Valad singari Sharqning buyuk siymolari Najmiddin Kubroning murid va shogirdlari bo'lgan.

Ul zoti sharif milodiy 1145(hijriy 540 yilda) Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keldi.

Abduraxmon Jomiy o'zining " Nafaxat ul-uns" asarida yozishicha Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafotil 1188) degan olim dargohida ta'lim oladi. Ruzbehon Najmidinni o'z o'g'lidek yaxshi ko'radi, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib , o'ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib , u yerdagi Imom Abu Mansur Hafda donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda Shayx bobo Faroj Ammor Yassir, Ismoil Kasriy kabi ulkan Mutasavvif olimlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi Shayx Ismoil Nasriy qo'lida tasavvufiy hirqapush darajasiga yotadi va ul zotning oq fotihasini oladi. So'ngra Misrdagi ustozi va qaynotasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani Xorazmga qaytib kelib xohaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, "Kubroviya" yoki "Zahobiya" tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib , o'z davrida Xuroson, Movorounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur "Lug'atnoma" sida keltirilishicha:

"... U kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs munozara qilsa, g'olib chiqar edilar"

(Ma'naviyat yulduzlari". Toshkent. " Abdullo Qodiriy" nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2001,154-155 betlar).

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kichadi. Bu davrda Turon o'lkasidagi Xorazm, Shosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarligi tufayli mo'g'illarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon lashkarboshilari Movorounnahrda yirik shaharlarni birin ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lganlar.

1221 yilning Jumodi ul-avval (iyul) oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li, tumonot lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir paytda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan, Najmiddin Kubro xalq orasidan Lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushmanidan himoya qilib turadi.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. U mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli janggi kirib, shahid bo'lgan. Jangdan so'ng, u kishining jasadini darxol topisha olishmagan. Chunki ul-zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi.

Najmiddin Kubro ma'naviy-ma'rifiy olami hudud bilmas darajada bo'lib, ul zot qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari "Favo'ix al-Jamol va faovtix al-Jalol", al-Usul al-oshara", "Risolat al- Xa'if al-Xalim min Laumon al-la'im" va boshqalardir. Ma'lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o'z tasavvuf maktabini yaratdi". Uning aqidasi ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokost, ya'ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokost, ya'ni katta olam(dunyo) bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Najmiddin Kubro shahid bo'lganidan so'ng, uning ta'limotini shogirdlari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubroviya maktabini vujudga keltirdilar.

Kubroviya maktabi bir qator mustaqil shaxobchalar vujudga kelishiga sabab bo'ldiki, ular musulmon dunyosi Sharqida keng tarmoq otdi.

Jumladan:

1. Firdavsiya- Najibiddin Muhammad tomonidan asos solingan va Hindistonda tarqalgan;
2. Nuriya-1317 yilda vafot etgan Abduraxmon al-Isfaroniy asos slogan, Kurboviyaning bag'dod shahobchasi;
3. Rukniya-asoschisi Rukniddin Alo'addavla as-Simmoniy bo'lgan birodarlik tariqati;
4. Hamadoniya oliya-Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko'rsatgan Sayyid Ali binni Shahobiddin Hamadoniy (1314-1385) asos slogan birodarlik tashkiloti;
5. Ig'toshoshiya oliya-Xuroson shahobchasi hisoblangan, Ishoq al-Xuttaloni (1423 yil o'ldirilgan) asos slogan tariqatidir;
6. Zahadiya -asoschisi XV asr o'rtalarida vafot etgan Abdulloh Borzishobodi Mashhadiy;
7. Nurbaxshiya-asoschisi Nurbaxsh (1392-1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Umumman olganda Najmiddin Kubro ta'limoti butun musulmon sharqi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirda ha uning ko'rinishlarini uchratish mumkin. Najmiddin Kubroning ma'naviy-ma'rifiy olami keng bo'lib, butun musulmon Sharqida tasavvuf ta'limoti rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uning nomi esa, islom olamida mashhur bo'ldi.

Endi Sayfiddin Farg'oniy ijodining ijtimoiy-siyosiy va falsafiy jihatlariga atroflicha to'xtalib o'ta,miz

XIII asrda yashagan O'rta Osiyolik atoqli mutafakkir, qasidanavis, g'azalگو'y san'atkorlardan biri Sayfiddin Muhammad Farg'oniy bo'lib, u taxminan o'sha asrning 20-yillarida, mo'g'ullar vatanini talayotgan bir vaqtda dunyoga kelgan.

Uning ijod yo'li, qoldirgan merosi haqida turk olimi Ahmad Otash, Eron adabiyotshunosi Zabeullo Safo va tojik olimi Ansor Absahovlar bir qator ma'lumot to'plaganlar. Ma'lum bo'lishicha, shoir asarlarining mukammal nusxalari (uchta qo'lyozma devoni) hozirgi kunlarda Turkiyada saqlanmoqda. Ular 1348 va 1349 yillarda ko'chirilgan.

Sayfiddin Farg'oniy dastlabki ta'limini Samarqand va Buxoro madrasalarida olgani haqida, ba'zo she'rlarida " Madrasaga borib, ilm o'rganishga ruju qilgani", g'oyatda muhtojlikda kun kechirgani haqida shikoyat qiladi.

Mo'g'ullar bosqini avj olgach, Sayfiddin boshqa ijodkorlar qatori, o'z vatanini tark etib, Tabrezga boradi va hokim Juvayniy saroyida ishlaydi. 1230 yillarning o'rtalariga qadar shoir Juvayniy panohida Tabrezda yashaydi, mana shu yerda uning hayotida muhim voqea yuz beradi. U buyuk shoir Sa'diyning she'rlari bilan tanishadi va u bilan do'stlik aloqalarini o'rnatadi. Chunki, Sa'diy nisbatan adolatli, ilmu adabni do'st tutuvchi Juvayniyga asarlarini jo'natar, uni ta'riflab qasidalar yozar edi.

Sayfiddin Sa'diy bilan she'riy noma orqali do'stlashadi va bu aloqa ikki buyuk mutafakkir ijodini ruhiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtiradi. Sa'diy 1265 yili Tabrezga kelganda Sayfiddin hamda mashhur shoir Xumomi Tabreziy bilan shaxsan uchrashib do'stlashgan. Chunki Sayfiddin o'z g'azal va qasidalarida Xumoti notini hamda Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" singari shoh asarlarini ko'p tilga oladi va ta'riflaydi.

1248 yili feodal urushlar natijasida Shamsuddin Juvayniy xonadoni bilan qatl etiladi, hokimiyatni qo'lga olgan yahud musulmonlarga nisbatan "qatli ot uyushtiradi. Ilm-adab ahlining hayoti xavf ostida qolgach, Sayfiddin Hajja boorish bahonasi bilan safarga chiqadi.

Makka ziyoratidan so'ng Sayfiddin kichik Osiyodagi Oqsaroy shahrida panoh topadi. Vatandan, do'stlaridan judo bo'lgan (1292 yili Sa'diy vafot etadi), XIV asrning boshlarida vatanidan yiroqda Oqsaroyda vafot etadi.

Sayfiddin Farg'oniyning bizga qadar katta hajmdagi asarlar devoni saqlanib qolgan. Uning 1348 yili Muhammad Ali Oqsaroy tomonidan ko'chirilgan nusxasi hozir Istanbul universitetining kutubxonasida saqlanadi. Devonning nashriy nusxalari dastxat asosida amalga oshirilgan bo'lib, u 573 g'azal, 116 qasida, 13 ruboiy, 4 qit'adan iborat.

Sayfi Farg'oniy o'z g'azal va qasidalarida Sa'diy, Sanoiy, Attor, Haqoniy, Rudakiy, Anvari, Zohiri Faryobiy singari ulkan ijodkorlarning an'alarini davom ettirib, dunyoviy sevgini kuylaydi, hayotga, go'zallik, tabiat ko'rkiga muhabbatni olqishlaydi, insonparvarlik, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrlarni ilgari suradi. Uning asarlarida zamona zulmidan, nodonlarning bedodligiyu ag'yorlarining g'alamusligidan shikoyat qilinadi, jamiyat illatlariga munosabat bildiradi:

Bozam az javri falak in dili g'amnok pus ast,
Bozam az xuni jigar dilan namnok pur ast.
Ya'ni, G'amgin ko'nglimga falak javri to'libdir,
Ko'z yoshimga jigar qoni to'libdir.

Ammo ijtimoiy hayot illatlari, zulm-zo'rlik, tengsizlikdan shikoyat, bosqinchilik, o'zaro urushlarni la'natlash, vayronaga aylangan vatan uchun, abgor bo'lgan xalqi uchun kuyunish Sayfi Farg'oniy qasidalarida g'oyatda mukammal ifodalangan.

Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy mushohadalar kuchli bo'lgan bu qasidsalarda biz an'anaviy madhiyabozlikni ko'rmaymiz. Hatto, davr hukmronlaridan bo'lmish G'azonxonga ba'g'ishlangan uch qasidada ham zamona nosozliklaridan shikoyat motivlari hiyla kuchlidir. Biz ularda mo'g'ul istilosi natijasida kultepaga aylangan shaharlarniyu xonavayron bo'lgan bechoralarni, darbadar yurgan xalqni ko'ramiz. G'o'yo shoir qasidalarida Chingizxon hujumi davridagi O'rta Osiyo xalqlari hayoti manzaralari chizilgandek tuyuladi.

Bir qasidada istilochilarning davlatni boshqara olmay, uni idora etishni mahalliy sotqin, amaldorlarga topshirgani ustidan kulsa, quyidagi baytlarda ularni la'natlaydi:

Mardumi beaqlu din girifta viloyat
Holi barra chun buvad, chu gurg shubon but.
Bingar imro'z bin, ki az oni kiyonast,
Mulk,ki diyu porer az oni Kayon bud,
Mulki shayotin shuda az zulmi taaddi,
On chi ba meros az oni odamiyon but.

Ya'ni, Viloyatni aqlu dinsiz kishi egalladi, bo'ri Ya'ni, Viloyatni aqlu dinsiz kishi egalladi, bo'ri cho'pon bo'lgach, qo'yni ahvoli nima kichadi. O'tgan kunlar Kayoniyar Mulki bo'lgan yurt bugun kimlarning qo'liga qolganini ko'r. insoniyatdan qolgan barcha meros zulm-zo'rlikdan shaytonlar mulkiga aylanadi.

Mutafakkirning mazkur baytlarida esa mo'g'ul istilosi davridagi xalqning o'g'ir turmushi, mamlakatning xonavayron bo'lgani aniq tasvirlangan:

Chu basta zeri poi pil Mulki,

Ba dasti in avonon uftoda. (Ma'nosi: bu lanatiylar qo'liga tushgan yurt, filning oyog'i ostiga tushgan mulkka o'xshaydi).

Qasidalaridan birida shoir G'ozonxonga Rumning xarobaligi manzarasini chizadi va uni yurtni obod, elni ma'mur qilishga chorlaydi. Shahar noobod, Xalq och-yalang'och, deydi Farg'oniy, hukmronlar jabr-zulmni kundan-kunga oshirmoqda, oliq-soliqlar ko'p, narx baland, lekin mazlumlar dodiga yetadigan inson yo'q.

Alloma zodagonlar hayoti bilan mazlumlar turmushini qiyoslab, mehnatkash xalq ahvolining naqadar ayanchli ekanligini ro'yrost ko'rsatgan:

Zolimon murdadilu mazlumakon navhakunon,

Hech dilso'z naboshad murdaro bar navhagar.

(Ya'ni: Zolimlar qalbi o'ligu mazlumlar nolaksh, o'liklar qanday qilib tirik yig'lovchilarga taskin berishsin).

Shunday qilib Sayfi Farg'oniy ijodi tom ma'noda zamon illatlar: zulm-zo'rlik, sudxo'rlik, tovlamachilik, munofiqlik, riyokorlik, ta'magirlik, muttahamlik, talonchilikni qoralashga, diniy-urf-odatlarini, shariat qoidalarini suistemol, xalqni qullik va jaholatga saqlashni qattiq tanqid qilishga qaratilgan.

Mutafakkir ilm- ma'rifatni targ'ib etadi, nodonlar izzatdayu donolar xor-zorlikdaligidan noliydi, hukmronlarni insof, adolatga, insonparvar bo'lishga chorlaydi. O'z ahvolidan noligan alloma "Jabr ko'rgan mazlumlar", "Parishonxotir bechorlar" g'amidan afsus -nadamatlar chekadi, mo'g'ul bosqinchilari va ularning mahalliy malaylarini "Xalqning go'shtiga tushgan" ga o'xshaydi:

... Base mardum zi sarto dar zaminand,

Chu barf andar zimiston uftoda.

Ba jon anbaru mushkash kunu hast,

Gazanda dar girebon uftoda...

...Ayo mazlumi sargashta ki xasta,

Chunon mahrumi hayron uftoda.

Zi javri zolimon dar mulki xesh

Bahori chun g'aribon uftoda.

(Ya'ni: Ko'p xalq qishda yoqqan qordek sovuqdan yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Endilikda (xalqning) yoqasiga mudhku anbar o'rniga gazandalar yopishib olgan. Ey sargardon mazlumlar, nechun bu qadar hamma o'z vataningda g'ariblardek xor-zorlikka yo'liqibsan.

Umumman Sayfi Farog'iy asarlari XIII-XIV asr O'rta Osiyo xalqlari tafakkuridagi ijtimoiy-siyosiy ruhning rivojida muhim o'rin tutadi. U xalqning kuch-quvvatiga chinakam ishongan, uni astoydil e'zozlagan san'atkordir. U bunday deydi:

Otash ast obi didai mazlum

Chun ravon gasht xushkutar so'zad.(mazlumlarning ko'z yoshi otashdir, u alanga olsa, ho'lu quruq barobar yonadi).

Adabiyotlar

1. . Sh.M.Mirziyoyev “ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T., “O‘zbekiston”, 2016.
2. Sh.M.Mirziyoyev “ Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T..”O‘zbekiston”,2017
3. M.M.Xayrullayev. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. T..,”Fan”,1994
4. H.Homidiy. Ko‘hna Sharq darg‘alari. T.., “Sharq”, 1999.
5. I.Jumayev. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T.., “O‘qituvchi”, 1997
6. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. T.., “Sharq”, 1992.
7. O‘zbekiston xalqlari tarixi. T.., “Fan” 1992.
8. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida. T..,”Fan”, 1995.
9. O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy -siyosiy fikrlar tarixidan lavhalar. T.., “Fan”, 1995.
10. Ma‘naviyat yulduzlari. T., “Fan”, 1995.
11. Falsafa. Qomusiy lug‘at. T.., “O‘zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti” “Sharq”, 2004.
12. Islom. Entiklopediya. T.., “O‘zbekiston milliy entiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.2004.